

PAPER

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY XORIJIY TAJRIBASI

Turaev S.T. ^{1,*}

¹ O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti dotsent, QK hizmatchisi

* turaev852@gmail.com

Abstract

Maqolada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy xorijiy tajribasi xususida suz yuritilgan.

Key words: Skaut, Yunarmiya, Xarserlar, Jas Ulan

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy ko'rinishlarini o'rganish maqsadida Buyuk Britaniya,

Rossiya Federatsiyasi, Polsha hamda Qozog'iston Respublikalarining tajribalari o'rganildi.

Xalqaro miqyosda bolalar va o'smirlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari dastlab norasmiy ravishda tuzilgan harakatlar (tashkilot) tomonidan amalga oshirilgan.

Ushbu Xalqaro Scout harakati tashkiloti byurosi Shveysariyaning Jeneva shahrida bo'lib, Bosh boshqaruv kotibiyati Malayziyaning

Kuala-Lumpur shahrida joylashgan. Hozirgi vaqtga kelib, tashkilot a'zolarining soni umumiy 28 milliondan ortiq deb hisoblanadi. Iordaniyalik Axmad Alxendavi 2017 yildan hozirgi kunga qadar tashkilotning Bosh kotibi lavozimida faoliyat yuritmoqda. Bosh kotib tomonidan xalqaro va uzoq

masofali skaut uchrashuvlari har uch-to'rt yilda o'tkazilishi belgilangan.

Skaut harakatining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning asoschisi Smit Baden-Pauell hisoblanib, u Britaniya armiyasida kavaleriyachi mutaxassisligi bo'yicha harbiy xizmat o'tagan. Baden-Pauell 1899 yil Janubiy Afrikadagi Mafeking qal'asida komendant bo'lib xizmat qilib yurgan vaqtida garnizon qo'riqlovini mahalliy hududdagi o'g'il bolalardan tashkil etgan. Ular boshqa narsalar bilan bir qatorda, dushman pozitsiyalari yuzasidan ma'lumotlarni yetkazib turish va boshqa xat-xabarlarni eltib berish vazifasini bajargan.

Ushbu bolalarning jasurligi va mehnatevarligi shu bilan birga, ularning kattalar bilan bir qatorda jang qilishi polkovnikni hayratga soldi. Baden-Pauell 207 kun davomida o'zining kichik guruhi bilan garnizon mustahkamlab olingunga qadar

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

hududni ushlab turdi.

Shu vaqtdan boshlab polkovnik, harbiy razvedkachilar tayyorlashni bolalikdan boshlash kerak degan xulosaga keldi.

Shundan so'ng, Baden-Pauell Angliyaga qaytgach 1907-yilda

Buyuk Britaniyada skaut harakatiga asos soldi. 1907-yilda Braunsi orolida (Buyuk Britaniya) birinchi lager yig'ini o'tkazildi va 1908-yilda dunyoga mashhur "O'g'il bolalar uchun skaut" kitobini nashr etdi.

Skaut harakatining yangiligi shundan iborat ediki, u birgalikdagi faoliyati jarayonida, boshqa odamlar, tabiat va umuman dunyo uchun foydali bo'lish istagidagi o'smirlar, bolalar va kattalarni umumiy maqsadlarda bir tashkilotda birlashtirgan.

Baden-Pauell harakatga a'zo bo'lgan kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni teng huquqli etib belgilagan. Ya'ni, unda kattalar va bolalarning har biri o'z vazifasini bajargan. Kichik bolalar ixtiyoriy ravishda kattalarning mavqei va ularning vazifalaridan kelib chiqib, ularga katta do'st, bilimdon va malakali ustoz sifatida munosabatda bo'lishgan.

Harakat o'smirlar va kattalarni diniy mazhablar, turli irq va elatlaridan qat'iy nazar, nafaqat Yevropada katolik, pravoslav xalqlarini balki musulmon dunyosini ham bir tashkilotga birlashtirgan. Aslida skautlik pedagogikaning yangi turiga asos soldi. Keyinchalik sobiq SSSRda rasmiy (majburiy) maktab ta'limidan farqli o'laroq norasmiy pedagogika deb ataldi va asta-sekinlik bilan boshqa davlatlarga yoyilgan.

Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan 2016 yil yanvar oyida Rossiyada 700 mingdan ortiq bolalar va o'smirlarni birlashtiruvchi "Yunarmiya" (Yosh armiya - tahr.) harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etilgan.

"Yunarmiya" – Butun Rossiya bolalar-o'smirlar harbiy-vatanparvarlik jamoat harakati 2016 yil 29 iyuldan boshlab tashkilot o'z bayrog'ini, emblemasini oldi va yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazib, 1 sentabrdan tashkilot rasman o'z faoliyatini boshlagan. 2020 yil 19 dekabrda boshlab Yoshlar armiyasi Bosh shtabi Moskva harbiy okrugi ofitserlar uyida joylashgan.

Harakatning quyidagi yo'nalishlarda faoliyatini tashkil etib, o'z safiga yoshlarni keng jalb etgan:

Shaxsiyatning rivojlanishi - ijodiy rivojlanish,

sog'lom turmush tarzi va sportni targ'ib qilish, bo'lg'usi kasbni tanlash uchun yo'naltirish;

Fuqaro faolligi - ko'ngillilik, qidirish ishlari, tarixni o'rganish, maktab muzeylarini tashkil etish va rivojlantirish;

Axborot-mediya - maktab gazetalarini yaratish, mahalliy gazeta, jurnallar va televideniya uchun materiallar tayyorlash;

Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida - klublar, yosh askarlar, qutqaruvchilar, chegarachilar kabi to'garaklarni yaratish orqali.

Shu bilan birga, tashkilot ixtiyorida "Yunarmiya" gazetasi va "Yunarmees" jurnali ro'yxatdan o'tkazilgan. "Yunarmiya"ning yana o'ziga xos belgisidan biri, bu yorqin qizil beretidir. Shuningdek, harakatning rasmiy madhiyasi – "Rossiyaga xizmat qiling" qo'shig'i ham mavjud.

Hozirgi kunda tashkilotning filiallari Armaniston, Tojikiston va Abxaziyada ham ochilgan.

Polshaning "Xarserlar" uyushmasi – mamlakat yoshlarining harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi milliy skautlar tashkiloti hisoblanadi. U 1944 yil 30 dekabrda tashkil topgan bo'lib, hozirda tashkilotning 110 mingdan ortiq a'zolari mavjud. Tashkilot o'z oldiga quyidagi asosiy maqsadlarni qo'ygan:

yoshlarni sadoqat, madaniyat, bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, ularni tinchlik o'rnatish an'analari, bilim olishga astoydil intilishi va o'z-o'zini takomillashtirishga yo'naltirish;

Vatan tarixi, mamlakatning buguni va kelajagi uchun yuqori mas'uliyat hissigacha ega hamda yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaydigan vatanparvar va komil insonni tarbiyalash.

Tashkilot nomlanishiga to'xtaladigan bo'lsak, "Xarser" (polyakchada "harczer"-xarsej talaffuz qilinadi) Polshaning "Xarzovniki", ya'ni qarama-qarshi qo'shinlarning oldingi chizig'ida turib, birinchi duelda jang qilgan ritsarlar nomidan kelib chiqqan.

Hozirgi vaqtda Polsha Xarserlar ittifoqi 100 mingga yaqin a'zolari birlashtirib, davlatdagi yirik yoshlar tashkiloti bo'lib qolmoqda.

Qozog'istonda mazkur yo'nalishdagi ishlarni maktab o'quvchilarining ommaviy jamoat tashkiloti hisoblangan "Jas Ulan" birlashgan bolalar va o'smirlar tashkiloti tuzilgan. "Jas Ulan" yosh avlodni qozoq vatanparvarligi ruhida yuksak axloqiy

va ma'naviy qadriyatlar, bag'rikenglik tamoyillari, demokratiya va madaniyatni tushuntirishga asoslangan yagona davlat tashkiloti hisoblanadi.

Tashkilot mamlakat umumta'lim maktablari bazasida o'z faoliyatini yuritib, asosan ijodiy, sport, jamoat, nodavlat tashkilotlar va davlat idoralari bilan yaqin hamkorlik qiladi. Uning faoliyati Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunchiligi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga asoslanadi.

Tashkilot oldiga quyidagilar asosiy maqsad etib belgilangan:

yosh avlodning ma'naviy potensialini qozoq xalqining tarixi, madaniyati va tilini bilish asosida shakllantirish;

o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni rag'batlantirish, turli bolalar ijodi va ijtimoiy tashabbuslarini rivojlantirish;

bolalar jamoat tashkilotining maqomi va nufuzini, maktab hayotidagi bolalarning ijtimoiy tashabbuslarini oshirish.

Mazkur xorij davlatlarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida tuzilgan tashkilotlar faoliyatidan kelib chiqib xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buyuk Britaniya va Polshada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy omili bu ular bilan ko'p yillar mobaynida o'tkaziladigan maxsus harbiylashtirilgan tadbirlardir, Rossiya Federatsiyasida esa imtiyozlar va qattiq tartib-intizom bilan bog'liqligida bo'lsa, Qozog'iston Respublikasida asosiy omil bu ularning milliy urf-odat va qadriyatlarga asoslangan holda olib borilayotganidadir.

Shunday qilib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida xorij mamlakatlari o'zining amaliyotdagi tajribalarining tahlili, yoshlarni jismoniy, aqliy, ijtimoiy va ma'naviy salohiyatli etib tarbiyalash, o'z mamlakati taqdiriga mas'uliyatli va munosib kelajak egalarini tayyorlash, kelgusida mamlakat armiyasini yetuk, malakali hamda iqtidorli harbiy kadrlar bilan butlash, shu bilan birga o'sib kelayotgan kelajak avlod yoshlari uchun "zamonaviy yoshlar" namunasini yaratib bermoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2021. - 325 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. / Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
3. Scouts [Electronic resource] // SCOUTS, Great Britain. - Mode of accyess: <http://whc.scouts.org/yen/list>. - Date of accyess: 12.04.2022.
4. Yunarmiya [Электронный ресурс] // Yunarmiya, Rossiyskiy Federacii. - Rejim dostupa: <http://whc.yunarmiya.org/yen/list>. - Date of accyess: 10.04.2022.
5. Xarsers [Electronic resource] // XARSERS, POLAND. - Mode of accyess: <http://whc.xarsers.org/yen/list>. - Date of accyess: 10.04.2022.
6. Jas Ulan [Электронный ресурс] // Jas Ulan, Respubliki Kazaxstan. - Rejim dostupa: <http://whc.jasulan.org/yen/list>. - Date of accyess: 10.04.2022.